

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAVLANOV G‘OLIBJON MUXAMMAD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Science (DSc) on economics sciences**

Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li

O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Мавланов Голибжон Мухаммад угли

Совершенствование экономических механизмов развития горного туризма в
Узбекистане.....29

Mavlanov Golibjon Mukhammad ugli

Improvement of the economic mechanisms for the development of mountain tourism
in Uzbekistan.....59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAVLANOV G‘OLIBJON MUXAMMAD O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4626 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziynet" axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zufarova Nozima Gulamiddinovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ayubov Ilyos Ilxomovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "24" "08" soat 12.00 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 107B-uy Tel: (71) 205-06-00, (71) 200-00-88, info@motach.uz, turizmdevona@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin "1731" raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (0371) 239-28-72, Faks: (0371) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "13" "08" kuni tarqatildi.

(2025-yil "13" "08" daqiqa 60 raqamli reestr bayonnomasi)



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tog‘ turizmini rivojlantirishga nafaqat hududiy iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ushbu turizm turi ekoturizm, sport turizmi va madaniy merosga asoslangan sayohatlar bilan integratsiyalashgan holda, kam rivojlangan tog‘li hududlarda infratuzilmani yaxshilash, mahalliy aholining daromadini ko‘paytirish va ish o‘rinlari yaratish orqali ularni iqtisodiy faollikka jalb etadi hamda mamlakatning tashqi iqtisodiy obro‘cini oshirishga xizmat qiladi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, “So‘nggi o‘n yilda tog‘li hududlarga tashrif buyuruvchilar soni yiliga o‘rtacha 5–7 % o‘shib bormoqda. Bu o‘shish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tog‘li mintaqalarda yashovchi mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, tabiatni asrash va madaniy merosni saqlashga ham xizmat qiladi”¹. Shu bilan birga, tog‘ turizmini barqaror rivojlantirish, uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda global ahamiyatga ega masalaga aylanib bormoqda. Chunki tog‘ turizmi ekologik muvozanatni saqlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish va mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kabi global muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Jahonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari, avvalo, tog‘li hududlarda barqaror turizm infratuzilmasini shakllantirish, ekologik cheklovlarni hisobga olgan holda, investitsion model va moliyaviy rag‘batlantirish tizimlarini ishlab chiqish, hududiy ixtisoslashuv asosida turizm resurslarining iqtisodiy samaradorligini baholash, mahalliy aholining bandligi va daromadlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan iqtisodiy instrumentlarni qo‘llash, shuningdek, tog‘ turizmi tarmoqlarida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kabi konseptual yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa umumiy iqtisodiy o‘shishga xizmat qilish barobarida, kam rivojlangan hududlarda ijtimoiy adolat va hududlararo iqtisodiy disproporsiyalarni kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekiston uchun tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hududining qariyb 21 foizini tog‘lar tashkil etishi, boy tabiiy, tarixiy va madaniy merosga egaligi tog‘ turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bu salohiyatdan to‘liq foydalanilmayapti. Tog‘ turizmini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘shishga erishish, balki qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish va mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirish mumkin. Shu bilan birga, tog‘ ekotizimlarini saqlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish va milliy madaniy merosni asrash kabi muhim vazifalarni hal etishga ham hissa qo‘shish mumkin. Shuning uchun tog‘ turizmini

¹ Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO). (2022). *Tourism in Mountain Regions – Challenges, Opportunities and Sustainability*. Madrid: UNWTO. <https://www.unwto.org/tourism-in-mountain-regions>

rivojlantirishning samarali iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, "tog' turizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini takomillashtirish, tog' turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etish tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash, tog' turizmida investitsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan qonunchilik bazasini uyg'unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirish, Jizzax viloyati tog' turizmida onlayn marketing kampaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga qaratilgan dissertatsion tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son, 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son farmonlari, 2024-yil 25-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-335-son, 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tog' turizmini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, J.Swarbrooke, S.Horner, G.Moscardo, J.Makens, E.Laws kabi xorijlik olimlar tomonidan tog' turizmining nazariy asoslari hamda uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan².

² Swarbrooke J., Horner S. Consumer behaviour in tourism. – Routledge, 2007; Moscardo, Gianna. "Mindful visitors: Heritage and tourism". Annals of tourism research 23.2 (1996): 376-397; Laws, Eric. Improving tourism and hospitality services. CABI, 2004.

MDH mamlakatlarida tog‘ turizmini rivojlantirish muammolarini A.Yu. Alexandrova, M. Nuzhdina, D.I. Mamycheva kabi olimlar tadqiq etishgan³.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari M.Q. Pardayev, B.Isroilov, I.Isadjanov, A.A. Eshtayev, B.Sh. Safarov, M.T. Aliyeva, A.N. Norchayev, Sh.R. Fayziyeva, B.Sobirov kabi olimlarning boshqa mavzulardagi ilmiy ishlarida o‘rganilib, ilmiy xulosalari keltirib o‘tilgan⁴. Biroq O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning zamonaviy marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining AL-8023082021 “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi”dagi o‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy model”ini ishlab chiqish ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tog‘ turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

O‘zbekiston va xorijda tog‘ turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash; hududlarda tog‘ turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlarini aniqlash va baholash;

O‘zbekistonning Jizzax viloyatida tog‘-chang‘i kurortlarining shakllanish bosqichlari va ularning viloyatda kurort-rekreatsioon kompleksini rivojlantirishdagi rolini o‘rganish;

Jizzax viloyatida chang‘i turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va turistik-rekreatsioon resurslarni iqtisodiy baholash;

hududlarda tog‘ turizmini rivojlantirishga investitsiyalar sohasidagi institutsional kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

³ Alexandrova, P. Angelica. “Trends in the sphere of tourism”. Интеграция туризма в экономическую систему региона: перспективы и барьеры. 2021; Vladimirovna, Nuzhdina Marina, and Vasiliev Sergey Anatolyevich. “Recreation and tourism in the nizhny novgorod region”. International agricultural journal 3 (2022): 3; Mamycheva, D.I., Kobersy, I.S., Korenko, Y.M., Novikov, V.S., & Mandrik, N.V. (2017). Management of tourism and technology of planning of the tourist product. International Journal of Applied Business and Economic Research, 15(12), 215-224; Abduraimov, Dilshod. “Criteria and Indicators for Evaluating the Effectiveness of The Development of Regional Tourism Infrastructure”. Ilkogretim Online 20.3 (2021); Isadjanov, Abduvali, and Gulmurotov Ilyos. “Tourism development in Uzbekistan: current trends and national priorities”. The Light of Islam 1 (2020): 192-202.

⁴ Pardayev, M.Q., & Isroilov, B.I. (2021). Economic impacts of the pandemic on tourism: the case of. Critical Reviews, ISSN, 7(7), 952-958; Safarov B.Sh. “Innovative forecasting of national tourism service market in the Republic of Uzbekistan”. Journal of Management Value & Ethics (2016); Sobirov Bobur, et al. “The Essence and Composition of Regional Tourist Resources: Scientific Theoretical Analysis”. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022). Atlantis Press, 2023.

Jizzax viloyatida tog' turizmiga investitsiya manbalarini jalb qilishda onlayn marketingdan foydalanish istiqbollarini o'rganish;

tog' turizmi iqtisodiyotiga davlat investitsiyalarini jalb qilish vositasi sifatida hududning investitsiya marketing rejasini ishlab chiqish;

tog' turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda, xususan, Jizzax viloyatida tog' turizmi sohasi va uning rivojlanish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion jozibadorligini oshirish bilan bog'liq munosabatlar, jarayonlar va qonuniyatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda so'rovnoma va intervyu, tizimli tahlil usuli, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellash, SWOT-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "tog' turizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni, asosan, tog'li hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga asoslangan. Bu turizm faoliyati investitsiya jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda hududiy rivojlanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan ixtisoslashgan shakl bo'lib, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tog' turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etishning kompleks modeli investitsion jozibadorlikni oshirish ($25\% \leq IJ \leq 30\%$), davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonini ko'paytirish ($30\% \leq DXSh \leq 50\%$), innovatsion texnologiyalarning sohaga integratsiyasini kengaytirish ($35\% \leq IT \leq 40\%$), sohaning umumiy iqtisodiy o'sishini barqaror ta'minlash ($10\% \leq IO' \leq 12\%$) tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash orqali takomillashtirilgan;

tog' turizmida investitsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ko'p omilli institutsional model milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda qonunchilik bazasini uyg'unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirishning davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlik ($0,1 \leq H \leq 0,3$), moliyaviy resurslarni boshqarish ($0,2 \leq MR \leq 0,45$), tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ($0,25 \leq TR \leq 0,35$), ekoinnovatsiyalarni kengaytirish ($0,1 \leq 0,25$) o'rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

Jizzax viloyati tog' turizmida onlayn marketing kompaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tog' turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari takomillashtirildi;

O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va omillari aniqlandi;

hududlarda tog' turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlari va baholash mezonlari ishlab chiqildi;

tog' turizmiga investitsiyalar jalb etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari asoslandi;

tog' turizmi sohasida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari rivojlantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining so'rovnomadan o'tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik, idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanganligi, tavsiflovchi statistika, tadqiqot davomida zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellardan foydalanilganligi, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u tog' turizmini rivojlantirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash, mahalliy hamjamiyat ishtirokini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan konseptual yondashuv ishlab chiqadi. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional omillarni o'z ichiga olgan ko'p mezonli baholash tizimiga asoslangan tog' turizmi sohasida investitsion jozibadorlikni baholashning ajralmas modelini taklif qiladi. Tadqiqotda tog' turizmini rivojlantirishda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan klasterli yondashuvning nazariy va uslubiy asoslari hamda tog' turizmini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari, xususan, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalardan integral modeldan foydalangan holda, tog' turizmidagi mintaqalarning investitsion salohiyatini miqdoriy baholash vositalarini taklif etish, tog' hududlarining sayyohlik jozibadorligini oshirish hamda VR va AR texnologiyalaridan foydalangan holda, potensial investorlarni jalb qilish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish, unda turizm daromadlarini mahalliy jamoalar o'rtasida teng taqsimlash va ularning faol ishtirokini ta'minlash mexanizmlari taklif etish hamda ushbu topilmalardan siyosatchilar va turizm sohasi manfaatdor tomonlari O'zbekistonda, xususan, Jizzax viloyatida tog' turizmining investitsion

jozibadorligini oshirish va barqaror rivojlanishida foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “tog‘ turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini, asosan, tog‘li hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga asoslangan, investitsiya jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda hududiy rivojlanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyatining ixtisoslashgan shaklini yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Turizm asoslari” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida turizm yo‘nalishidagi talabalarda tog‘li hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga yo‘naltirilgan turizm faoliyatining ixtisoslashgan shaklini yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan tog‘ turizmi tushunchasi yuzasidan bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tog‘ turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etishning kompleks modeli investitsion jozibadorlikni oshirish ($25\% \leq IJ \leq 30\%$), davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonini ko‘paytirish ($30\% \leq DXSh \leq 50\%$), innovatsion texnologiyalarning sohaga integratsiyasini kengaytirish ($35\% \leq IT \leq 40\%$), sohaning umumiy iqtisodiy o‘sishini barqaror ta‘minlash ($10\% \leq IO' \leq 12\%$) tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Jizzax viloyatining turizm salohiyati 2024-yilning ikkinchi kvartalida xorijiy sayyohlar soni 148 ming nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilning oxiriga kelib 145 ming nafarni tashkil etgan;

tog‘ turizmida investitsion faollikni oshirishga yo‘naltirilgan ko‘p omilli institutsional model milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda qonunchilik bazasini uyg‘unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirishning davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi hamkorlik ($0,1 \leq H \leq 0,3$), moliyaviy resurslarni boshqarish ($0,2 \leq MR \leq 0,45$), tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ($0,25 \leq TR \leq 0,35$), ekoinnovatsiyalarni kengaytirish ($0,1 \leq EIK \leq 0,25$) o‘rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi

Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Jizzax viloyatining turizm salohiyati 2024-yilning ikkinchi kvartalida ichki sayyohlar soni 832 ming nafarni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yilning oxiriga kelib 350 ming nafarni tashkil etgan;

Jizzax viloyati tog‘ turizmida onlayn marketing kompaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida olingan prognoz ko‘rsatkichlardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi asosiy parametrlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ma’ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 4 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 149 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda “Tog‘ turizmining rivojlanish xususiyatlari” o‘rganilgan. Tog‘ turizmi – bu noyob va betakror tajribalarni taklif etuvchi, shu bilan birga, murakkab va ko‘p qirrali turizm sohasi hisoblanadi. Bu soha o‘zining go‘zal

manzaralari, sof havosi va tabiat bilan uyg'unlashish imkoniyatlari bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Biroq uning rivojlanishi va boshqarilishi bir qator muhim omillarni hisobga olishni talab etadi.

Tog' turizmining asosiy xususiyatlaridan biri – bu tabiiy resurslarning muhimligi va ularni asrash zaruratidir. Tog'li hududlar noyob ekotizimlar, xilma-xil o'simlik va hayvonot dunyosiga ega bo'lib, ularni saqlash va himoya qilish nafaqat ekologik, balki turistik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu hududlar nozik ekologik muvozanatga ega bo'lib, turizm faoliyatining ta'siri jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mavsumiylik tog' turizmining yana bir muhim jihatidir. Yoz va qish mavsumlarida turistik oqimlarning keskin farq qilishi infratuzilmani rejalashtirish va boshqarishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bu esa yil davomida barqaror daromad olish va doimiy ish o'rinlari yaratishni murakkablashtiradi. Tog'li hududlarda infratuzilmani rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, alohida yondashuv talab etadi. Transport aloqalari, kommunikatsiya tizimlari, turarjoy va ovqatlanish obyektlarini yaratish yuqori xarajatli va texnik jihatdan murakkab jarayon bo'lib, bu katta miqdordagi investitsiyalarni jalb qilish va uzoq muddatli rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xavfsizlik masalalari tog' turizmida muhim o'rin tutadi. Ob-havoning tez o'zgaruvchanligi, tabiiy ofatlar xavfi, murakkab relyef sharoitlari sayyohlar va mahalliy aholi xavfsizligini ta'minlash uchun kompleks va oldindan rejalashtirilgan maxsus choralar ko'rishni talab qiladi.

Mahalliy jamoa bilan o'zaro munosabatlar tog' turizmini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ko'pincha tog'li hududlar an'anaviy turmush tarzi va madaniy qadriyatlarni saqlab qolgan jamiyatlar bilan bog'liq. Turizm rivojlanishi, bir tomondan, iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, boshqa tomondan, mahalliy madaniyat va ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning tog' turizmini rivojlantirish tajribasini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir qator muhim farqlar va rivojlanish imkoniyatlari aniqlandi. Rivojlangan mamlakatlarda tog' turizmi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaraladi hamda bu sohani rivojlantirish uchun keng ko'lamli milliy va mintaqaviy dasturlar amalga oshiriladi. Bu mamlakatlarda zamonaviy infratuzilma, xalqaro miqyosda tanilgan turistik brendlar, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimi va ilg'or xavfsizlik standartlari mavjud. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik mezonlarga qat'iy rioya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda esa tog' turizmi sohasida sezilarli ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilayotgan bo'lsa-da, hali rivojlanishning ichki zaxiralari to'liq safarbar etilmagan. Infratuzilmani yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilishi zarur. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faollashtirish, mahalliy aholining ishtirokini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali O'zbekiston o'zining betakror tog' turizmi salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi mumkin. Tog' turizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy yondashuvlarini tizimli ko'rinishda ifodalash uchun 1-jadvalga murojaat qilinadi:

Tog‘ turizmini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va zamonaviy yondashuvlar⁵

Asosiy yo‘nalishlar	Tog‘ turizmini rivojlantirish yo‘llari
Infratuzilmani rivojlantirish	Yo‘l, transport va kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiyalashtirish; Mehmonxonalar, sport va dam olish obyektlari qurish va rekonstruksiya qilish; Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish (raqamli xizmatlar, aqlli texnologiyalar, mobil ilovalar va h.k.); Yashil energiya manbalaridan foydalanish.
Turizm mahsulotlari va xizmatlar sifatini yaxshilash	Tog‘ turizmi faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish (alpinizm, trekkinglar, qishki sport turlari, ekstremal sport turlari va h.k.); Qo‘shimcha xizmatlar (ovqatlanish, transport, sug‘urta, ekskursiya va h.k.) taklif qilish; Ko‘p tilli xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish.
Marketing va reklamani kuchaytirish	Milliy va xalqaro marketing kompaniyalarini tashkil etish; Tog‘ turizmi uchun xalqaro brend yaratish; Xalqaro ko‘rgazmalar va turizm tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.
Ekologik jihatdan barqaror turizm tamoyillarini rivojlantirish	Tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; “Yashil” infratuzilmani rivojlantirish; Salbiy ekologik ta’sirlarni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish.
Inson resurslarini rivojlantirish	Turizm sohasidagi kadrlar (mehmonxona xizmati, ekskursiya, turorganizatorlar va boshqalar) tayyorlash tizimini takomillashtirish; Raqamli, marketing, xorijiy tillar kompetensiyalarini rivojlantirish; Xalqaro tajriba almashish stajirovka imkoniyatlarini yaratish.

Uslubiy yondashuvga ko‘ra, muallif tomonidan “tog‘ turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni quyidagicha taklif etiladi. Bu – tog‘li hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga asoslangan, investitsiya jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda hududiy rivojlanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan turizm faoliyatining ixtisoslashgan shaklidir. Ushbu yondashuv tog‘ turizmida yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi zamonaviy model shakllantirish imkonini beradi.

Tog‘ turizmini rivojlantirishning ushbu yo‘nalishlari va yondashuvlar O‘zbekistonda mazkur sohaning raqobatbardoshligini oshirish, turistik oqim hajmini kengaytirish, mahalliy aholining bandligi va daromadlarini ko‘paytirish, shuningdek, tog‘li hududlarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tog‘ turizmi sohasi o‘ziga xos qator muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tizimli hal qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar kerak. Tog‘ turizmini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari quyidagi 2-jadvalda aks ettirilgan.

⁵ Muallif ishlanmasi.

Tog' turizmini rivojlantirishning o'ziga xos muammolari va ularni hal etish yo'llari⁶

Asosiy yo'nalishlar	Muammolar	Hal etish yo'llari
Infratuzilma muammolari	Tog' hududlarida yo'l, transport, injeneriya kommunikatsiya tarmoqlari, mehmonxona va servis obyektlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Kapital xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish, zamonaviy loyihalash va qurilish texnologiyalaridan foydalanish
Ekologik muammolar	Tabiiy landshaft va madaniy meros obyektlarining turizm oqibatida degradatsiyaga uchrashi, chiqindilar boshqaruv tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi	Ekoturizm tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini joriy qilish, ekologik nazorat va monitoringni kuchaytirish, "yashil" texnologiyalarni keng qo'llash
Kadrlar ta'minoti muammolari	Soha uchun malakali mutaxassislar, xorijiy til, marketing, raqamli kompetensiyalarga ega kadrlarning tanqisligi	Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, xalqaro malaka standartlarini joriy etish, xorijiy stajirovka va hamkorlikni kuchaytirish
Marketing va brendlash muammolari	Tog' turizmining milliy va xalqaro miqyosdagi brendi shakllanmaganligi, global bozorga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi	Zamonaviy marketing strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli marketing kompaniyalarini tashkil etish, xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish
Innovatsiya va raqamlashtirish muammolari	Tog' turizmi xizmatlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasining yetarli emasligi	"Aqlli turizm" (smart tourism) texnologiyalarini joriy etish, mobil ilovalar, onlayn bronlash va raqamli xizmatlar platformalarini samarali boshqarish tizimlarini joriy etish

O'zbekistonning tog' hududlarida turizmni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ulardan eng dolzarblaridan biri – bu mehnat resurslarining yetishmasligidir. Malakali kadrlar, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida xodimlar yetishmasligi va xizmatlar sifati sayyohlarning qoniqish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, yer egaligi va yer maydonlarining cheklanganligi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi obyektlar qurish va investitsiya kiritish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, turistik yuklamalarning (sayyohlar oqimi) ortishi natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolar tog' hududlarining betakror ekologik muvozanatini izdan chiqarishi mumkin. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda yangi chora-tadbirlar talab qiladi.

Umuman olganda, tog' turizmini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: geografik joylashuv, iqlim sharoiti, mehnat resurslari salohiyati, yer munosabatlari va h.k. Ushbu omillar bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni tizimli hal qilish orqali tog' turizmini shakllantirish istiqbollari sezilarli oshirish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, O'zbekistonning o'ziga xos betakror tabiati va madaniy merosiga asoslangan milliy modelini ishlab chiqish dolzarbdur. Bunday yondashuv esa tog' turizmi sohasida innovatsion yechimlar joriy etish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va hududiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shish imkonini beradi.


⁶ Muallif ishlanmasi.

Tog‘ turizm sohasida qulay investitsiya muhitini baholash murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bir qator muhim omillarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil qilish uchun iqtisodiy, huquqiy, infratuzilmaviy, tabiiy, ijtimoiy va institutsional omillarning keng doirasini har tomonlama tahlil qilish zarur. Xususan, makroiqtisodiy barqarorlik, soliq tizimining samaradorligi va huquqiy-me‘yoriy bazaning aniqligi investorlar tomonidan e‘tibor qaratadigan muhim jihatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, transport va kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi, malakali kadrlar mavjudligi hamda hududning innovatsion imkoniyatlari ham investitsiya jarayonlariga bevosita ta‘sir qiladi.

Bundan tashqari, hududning xalqaro miqyosda tanilganligi, turistik brend qiymati va marketing salohiyatining mavjudligi investitsiya qarorlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan omillar qatoriga kiradi.

Investitsiya muhitini har tomonlama baholashda moliyaviy tizimning rivojlanganligi, institutsional muhitning sifati hamda hududda shakllangan raqobat sharoitlari kabi omillarni ham inobatga olish lozim. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivojlanishi qulay investitsiya muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Mazkur omillarni to‘g‘ri baholash uchun miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish, xalqaro tajriba va ilg‘or amaliyotlarni chuqur o‘rganish va ekspert baholash usullarini qo‘llash talab etiladi. Har bir hudud uchun bu omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash hamda ularni kompleks tarzda tahlil qilish orqali investitsiya salohiyatini to‘liq baholash va rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Ikkinchi bobda “O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida tog‘ turizmining holati va tahlili” ko‘rib chiqilgan. Jizzax viloyatida tog‘ turizmi, xususan, tog‘-chang‘i kurortlarining shakllanishi hamda rivojlanishi uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, bu sohaning evolyutsiyasi 1960-yillardan boshlab to hozirgi kungacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu jarayon bir nechta muhim bosqichlardan iborat. Dastlabki rivojlanish davrida mahalliy aholi va sayyohlarning norasmiy faoliyati bilan boshlangan bu sohada keyinchalik tashkiliy shakllanish, faol va zamonaviy taraqqiyot bosqichlari kuzatildi. Har bir bosqich o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, davlat siyosati, iqtisodiy sharoitlar, infratuzilma rivojlanishi va xalqaro hamkorlik kabi omillar ta‘sirida shakllandi.



1-rasm. Hududlarda tog' turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlarini baholash ilmiy yondashuvi⁷

⁷ Muallif ishlanmasi

Zamonaviy bosqichda tog' turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa sohaga yangi investitsiyalar oqimini ta'minladi va xalqaro standartlarga mos chang'i kurortlarining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

3-jadvaldagi xorij tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, tog' turizmini rivojlantirishda bir nechta muvaffaqiyatli modellar mavjud. Bular orasida Shveysariya, Avstriya kabi Yevropa mamlakatlarining tajribasi eng ilg'or hisoblanadi. Mazkur davlatlar tog' turizmini rivojlantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratgan: infratuzilmani kompleks rivojlantirish, professional kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ekologik standartlarga qat'iy rioya qilish, to'rt mavsumli turizm modelini joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish.

Osiyo mintaqasida Yaponiya tajribasi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, bu mamlakatda zamonaviy texnologiyalar va xavfsizlik tizimlari bilan birgalikda an'anaviy milliy xususiyatlar uyg'unlashtirilgan. Kanada tajribasi esa ekoturizm va milliy parklar tizimini samarali boshqarish borasida namunaviy model bo'la oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar (Gruziya, Nepal) tajribasi shuni ko'rsatadiki, bosqichma-bosqich rivojlanish strategiyasi va milliy koloritni saqlash xorijiy sayyohlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu davlatlar arzon narxlar siyosati orqali xalqaro turistlar oqimini jalb qilishga erishgan.

O'zbekiston uchun ushbu xorijiy tajribalardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq: birinchi yo'nalish – institutsional mexanizmlarni takomillashtirish: davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlarga moslash, klaster yondashuvini joriy etish. Ikkinchi yo'nalish – iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish: investitsion jozibadorlikni oshirish, soliq imtiyozlari tizimini joriy etish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini yaratish. Uchinchi yo'nalish – infratuzilmani rivojlantirish: transport-logistika tizimini yaxshilash, xavfsizlik standartlarini joriy etish, zamonaviy turizm obyektlarini barpo etish. To'rtinchi yo'nalish – marketing strategiyasini takomillashtirish: xalqaro marketing strategiyasini ishlab chiqish, raqamli marketingni rivojlantirish, milliy turizm brendini yaratish. Beshinchi yo'nalish – kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish: xalqaro standartlar asosida mutaxassislar tayyorlash, malaka oshirish tizimini takomillashtirish, xorijiy tajribani o'rganish va amaliyotga joriy etish.

Umumiy qilib shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirish uchun taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda, bosqichma-bosqich joriy etish, milliy xususiyatlarni saqlab qolib, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Bu esa, o'z navbatida, turistlar oqimining ko'payishi, daromadlarning oshishi va mahalliy aholining turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Jizzax viloyatidagi tog'-chang'i kurortlarining kurort-rekreatsion kompleksini rivojlantirishdagi roli ko'p qirrali va keng qamrovli hisoblanadi. Bu kurortlar nafaqat turizm sohasi, balki butun mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sport va sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ta'lim va kadrlar tizimini takomillashtirishga yordam bermoqda. Shu orqali Jizzax viloyati nafaqat ichki

turizmni rivojlantirishda, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh tog‘ turizmi markaziga aylanish salohiyatiga ega.

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlardagi tog‘ turizmi tajribasi⁸

Davlat	Asosiy yondashuvlar	Iqtisodiy mexanizmlar	O‘zbekiston uchun foydali tajribalar
Shvey-sariya	Yuqori sifatli infratuzilma; Ekologik standartlar; To‘rt mavsumli turizm; Professional kadrlar tayyorlash	Davlat-xususiy sheriklik; Soliq imtiyozlari; Klaster tizimi Marketing konsorsiumlari	Infratuzilmani rivojlantirish modeli; Kadrlar tayyorlash tizimi; Ekologik menejment
Avstriya	Oilaviy biznes modeli; Qishki-yozgi kurortlar; Mahalliy ishlab chiqarish; Milliy brend	Imtiyozli kreditlash; Regional subsidiyalar; Innovatsion fondlar; Sug‘urta tizimi	Oilaviy mehmon uylar tizimi; Marketing strategiyasi; Mavsumiy diversifikatsiya
Yaponiya	Zamonaviy texnologiyalar; Xavfsizlik tizimlari; Onsen (issiq buloqlar); Transport logistikasi	Davlat investitsiyalari; Innovatsion subsidiyalar; Raqamli marketing; Infratuzilma obligatsiyalari	Xavfsizlik standartlari; Transport logistikasi; Innovatsion yechimlar
Kanada	Ekoturizm; Milliy parklar tizimi; Sport turizmi; Mahalliy madaniyat	Federal grantlar; Ekologik fondlar; Klaster dasturlari; Ijtimoiy investitsiyalar	Ekoturizm modeli; Milliy parklar tizimi; Sport infratuzilmasi
Fransiya	Alpinizm markazlari; Gastronomik turizm; Madaniy meros; Xalqaro marketing	Mintaqaviy fondlar; Turistik soliqlar; Marketing budjeti; Kasbiy ta‘lim	Marketing tizimi; Kadrlar tayyorlash; Gastronomik turizm
Gruziya	Arzon narxlar strategiyasi; Milliy an‘analar; Qulaylik va soddalik; Tez rivojlanish	Xorijiy investitsiyalar; Soliq imtiyozlari; Davlat dasturlari; Bank kreditlari	Narx strategiyasi; Milliy koloritni saqlash; Tez rivojlanish tajribasi
Turkiya	To‘rt yulduzli kurortlar, “All inclusive” tizimi; Transport logistikasi; Xalqaro marketing	Davlat subsidiyalari; Bank kreditlari; Soliq imtiyozlari; Xorijiy investitsiyalar	Xizmatlar paketi; Transport tizimi; Marketing strategiyasi
Nepal	Alpinizm va trekking; Mahalliy hamjamiyatlar; Ekologik turizm; Buddizm markazlari	Xalqaro grantlar; Jamoa fondlari; Mikrokreditlar; Ekologik to‘lovlar	Trekking marshrutlari; Mahalliy hamjamiyatlar roli; Ekologik turizm

Jizzax viloyatining 13 ta tumani va shahar bo‘yicha turizm infratuzilmasi hamda xizmatlarining umumiy holatini aks ettiruvchi 4-jadvalda 2024-yilga doir muhim ko‘rsatkichlar jamlangan. Mazkur jadval viloyat hududlarida turizm xizmatlarining mavjud imkoniyatlari va rivojlanish darajasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Har bir tuman kesimida Wi-Fi nuqtalari soni, suvenir do‘konlari, transport vositalari va sayyohlik-turistik xizmat ko‘rsatish punktlari (STP) soni

⁸ Muallif ishlanmasi.

ko'rsatilgan. Viloyat miqyosida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: viloyatda jami 8 ta axborot markazlari mavjud; 45 ta ekoturizm obyekti faoliyat ko'rsatmoqda; Wi-Fi nuqtalari soni 170 tani tashkil etadi; 677 ta hunarmandchilik ustaxonalari mavjud; 20 ta suvenir do'konlari xizmat ko'rsatmoqda; ziyorat turizmi obyektlari (ziyoratgohlar) soni 89 taga yetgan; 5 ta o'rmon xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda; transport xizmatlari uchun 30 ta avtobus va 57 ta mikroavtobus mavjud; 36 ta turistik yo'nalish belgilangan va sayyohlik-turistik xizmatlar ko'rsatish punktlari (STP) soni 205 tani tashkil etadi.


4-jadval

Jizzax viloyatining turizm salohiyati bo'yicha 2024-yil ma'lumoti⁹

Tuman, shahar nomi	Axborot markazlari	Eko-agroturizm obyektlari	Wi-Fi nuqtalari	Hunarmandlar ustaxonalari	Suvenir do'konlari	Ziyorat turizmi obyektlari, ziyoratgohlar	O'rmon xo'jaliklari	Transportlar, shundan		Turistik yo'l k o'rsatkichlari	SGSh
								Avtobuslar	Mikroavtobuslar		
Jami viloyat bo'yicha	8	45	170	677	20	89	5	30	57	36	205
Arnasoy tumani		1	2	5							4
Baxmal tumani	1	3	16	41		12	1		7	5	7
G'allaorol tumani	1	2	5	58	3	9		1		2	36
Do'stlik tumani			3	44	3				17		7
Sh.Rashidov tumani		2	1	92	3	6		12		2	52
Zarbdor tumani			3	41		3					6
Zafarobod tumani			1	25							4
Zomin tumani	4	28	46	66		30	1			21	10
Mirzacho'l tumani			3	43							7
Paxtakor tumani			1	45							13
Forish tumani	1	9	24	27	3	13	1			5	8
Yangiobod tumani			2	4		9	1			1	4
Jizzax shahri	1		63	186	8	7	1	17	33		47

Jizzax viloyati tog' turizmi salohiyatini aniqlashda tabiiy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kompleks baholash zarur. Bu jarayonda viloyat hududida joylashgan go'zal tog' tizmalari, daryolari, ko'llari, o'rmonlari va yaylovlari, shuningdek, noyob flora va faunasi asosiy baholash obyektlari sifatida qaraladi. Tabiiy resurslarning miqdoriy hajmi sifati, ekologik ahamiyati va ulardan foydalanish imkoniyatlari sinchkovlik bilan o'rganiladi. Imkon qadar ekologik muvozanatni saqlab qolish va resurslardan barqaror foydalanishga ahamiyat beriladi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining ma'lumotlariga asosan statistik ko'rsatkichlar.



2-rasm. Tog' turizmi iqtisodiyotiga davlat investitsiyalarini jalb qilish vositasi sifatida hududning investitsiya marketing rejasini ishlab chiqish bosqichlari¹⁰

Marketing salohiyatini baholash – brend tanilganligi, maqsadli bozorlar hajmi va raqobatchilar tahlilini o‘z ichiga oladi. Bu Jizzax viloyatining chang‘i turizmi bozorida o‘rnini aniqlash va samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun zarur. Ekologik holatni baholash – atrof-muhitning ifloslanish darajasi, ekologik xavf-xatarlar va tabiiy ofatlar xavfi ehtimolini (masalan, qor ko‘chishi, yer qimirlashi) o‘rganishni nazarda tutadi. Bu ma’lumotlar barqaror turizmni rivojlantirish va ekologik xarajatlarni hisoblash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Innovatsion salohiyatni baholash – viloyatda faoliyat yuritayotgan ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari va startap ekotizimining holatini o‘rganishni nazarda tutadi. Bu esa chang‘i turizmi yo‘nalishida zamonaviy yechimlarni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Xavfsizlik darajasini baholash jinoyatchilik statistikasi, favqulodda vaziyatlarga tayyorlik holati hamda tibbiy xizmatlar mavjudligini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu turistlar xavfsizligini ta‘minlash va sug‘urta xarajatlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu kompleks baholash jarayoni Jizzax viloyatida chang‘i turizmini rivojlantirish bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va uzoq muddatli strategiyalarni belgilash uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu baholash doimiy ravishda yangilanishi va takomillashtirib borilishi lozim, chunki turizm sohasi va iqtisodiy sharoitlar muntazam o‘zgarib bormoqda. Natijada bu kabi tizimli yondashuv Jizzax viloyatining chang‘i turizmi bo‘yicha mavjud imkoniyatlarini to‘liq ochib berish, bor resurslardan samarali foydalanish va viloyatni xalqaro miqyosda tan olingan chang‘i kurortiga aylantirishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Jizzax viloyatining investitsion muhiti hamda marketing strategiyasi faoliyati samaradorligini baholash murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu baholash jarayoni viloyatning investitsiya jozibadorligi, marketing faoliyatining natijadorligi hamda umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan. Baholashda bir qator muhim ko‘rsatkichlar va usullardan foydalaniladi. Jumladan, investitsiya hajmi dinamikasi, yangi investitsiya loyihalari soni, investorlar geografiyasi, brend tanilganligi, investitsiya forumlarida faollik, raqamli marketing samaradorligi, investorlar bilan aloqalar sifati, infratuzilmaning rivojlanish holati, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlik darajasi, marketing budjetining samaradorligi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, investitsiya hajmi dinamikasini o‘rganish orqali viloyatga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, ichki sarmoyalar va davlat investitsiyalari hajmi o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bu esa hududning investitsion jozibadorligi qanday sur‘atlar bilan o‘sib borayotganini baholashda muhim rol o‘ynaydi.

